XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 2-sentabr VII-16-94-2-38-K/25 Qorovulbozor tumani

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yilli ijrosi hamda daromadlari va xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hisobotini tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritilgan.

Mazkur hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yil I yarim yillikda tuman mahalliy byudjetining daromadlari 29.2 mlrd.so‘mni tashkil etib, ijrosi 101.2 foizga ta’minlangan. Hisobot davrida tuman mahalliy byudjeti xarajatlari jami 43.0 mlrd.so‘m bo‘lib, shundan tumandagi ijtimoiy soha xarajatlari 13.3 mlrd.so‘m yoki 30.9 foizni tashkil etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 143 va 147-moddalarida byudjet ijrosi jarayonida 2025-yil I yarim yillikda mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda byudjet parametrlari doirasida xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.

Xususan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-fevraldagi 03-03/1-4456-son yig‘ilish bayonnomasi ijrosini tumanda o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda. mahalliy byudjetlardagi past samarali xarajatlar maqbullashtirilgan va byudjet tashkilotlarining ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovlari bo‘yicha yil yakunigacha kutilayotgan xarajatlarni qoplashga yo‘naltirish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 126-moddalariga asosan tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Niyozovning hisobotni tinglab, yuqorida bayon etilganlarga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Niyozovning Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim

yillik ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

– tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik daromadlar ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 1-ilovaga;

– tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik daromadlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 2-ilovaga;

– tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgarishlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Latipov)ga:

– 2025-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rish:

– byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta’minlash topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman G‘aznachilik xizmati:

– tuman mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni. xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

– byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Niyozovga hamda tumandagi tegishli byudjet tashkilotlari bilan birgalikda:

– tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini;

– infratuzilma obektlarida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish va foydalanishga topshirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Niyozovga ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Suvonov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi HAMROYEV O‘TKIR SHOMAHMADOVICH

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2025-yil 2-sentabrdagi
VII-16-94-2-38-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yaram yillik daromadlar ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Daromadlar turlari nomi	Reja	Ijro	Farqi (+.-)	Ijrosi. foizda
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i			0.0	0.0%
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	2 178.0	2 229.4	51.4	102.0%
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	19 675.0	18 147.0	-1 527.9	92.0%
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	90.0	91.3	1.3	101.4%
5.	Oxirigi iste’molchiga benzin. dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	1 472.0	1 055.1	-416.9	71.7%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 568.0	1 447.5	-120.5	92.3%
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	950.0	1 305.6	355.6	137.4%
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	985.0	1 102.4	117.4	111.9%
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	864.0	1 208.2	344.2	139.8%
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	31.0	80.7	49.7	260.2%
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	993.0	1804.9	811.9	181.8%
12.	Davlat boji			0.0	0.0%
13.	Jarimalar			0.0	0.0%
14.	Ijara to‘lovlari	9.0	19.8	10.8	220.5%
15.	Dividendlar			0.0	0.0%
16.	Yig‘imlar	0.0	13.5	13.5	0.0%
17.	Boshqa tushumlar	0.0	663.2	486.7	0.0%
	Daromadlar jami:	**28 815.0**	**29 168.6**	**353.6**	**101.2%**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek. Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bidirishnomasi asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib. soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2025-yil 2-sentabrdagi
VII-16-94-2-38-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I-yarim yillik davomida daromadlar rejasiga kiritilgan o‘zgarishlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0.0		
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	2 418.0	-240.0	2 178.0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 148.0	-1 473.0	19 675.0
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	89.0	1.0	90.0
5.	Oxirigi iste’molchiga benzin. dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	1 348.0	124.0	1 472.0
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 046.0	-478.0	1 568.0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 000.0	-50.0	950.0
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 359.0	-6 374.0	985.0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	925.0	-61.0	864.0
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	31.0	0.0	31.0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	2 053.4	-1 060.4	993.0
12.	Davlat boji	0.0		
13.	Jarimalar	0.0		
14.	Ijara to‘lovlari	7.0	2.0	9.0
15.	Dividendlar	0.0		
16.	Yig‘imlar	0.0		
17.	Boshqa tushumlar	0.0		
	Daromadlar jami	**38 424.4**	**-9 609.4**	**28 815.0**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yillik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek. Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomasi asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib. soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2025-yil 2-sentabrdagi
VII-16-94-2-38-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlar rejasiga kritilgan o‘zgarishlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja
	Qorovulbozor tumani bo‘yicha jami	**39 224.4**	**6 044.5**	**45 268.9**
1.	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	5 810.9	1 846.9	7 657.8
2.	Madaniyat bo‘limi	2 274.9	523.0	2 797.8
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	676.9	293.4	970.3
4.	Sport bo‘limi	3 433.8	45.0	3 478.8
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	932.7	14.9	947.6
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 063.9	42.5	1 106.4
7.	Suv yetkazib berish xizmati	572.0	339.1	911.1
8.	Obodonlashtirish boshqarmasi	11 571.0	41.7	11 613.5
9.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	1 152.5	259.9	1 412.3
10.	Hokimyat	11 229.4	2 493.2	13 722.6
11.	shundan:	2 072.0	494.0	2 566.0
12.	*Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi*	8 373.0	1 835.7	10 208.8
13.	*"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari*	114.7	-4.0	110.7
14.	*Zahira jamg‘armasi*	506.0	161.2	667.3
15.	*Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati*	163.7	6.2	169.9
16.	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	494.2	115.7	609.9
-	*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari*	67.7	25.2	92.8
	Axborot-kutubxona markazlari	426.6	90.5	517.1
	Boshqa tashkilotlar	11.6	29.2	40.7

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari. tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining bildirishnomasiga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar.*